

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

JUMAYEVA GULNOZA TO‘LQIN QIZI

**IKKILAMCHI TERI TO‘QIMA SIRTINI ELASTIK POLIMER-
ADGEZIV BILAN IMITATSIYALI BOYITISHNING TEXNOLOGIYASI**

**05.06.03 -Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in technical sciences**

Jumayeva Gulnoza To‘lqin qizi

Ikkilamchi teri to‘qima sirtini elastik polimer-adgeziv bilan imitatsiyali
boyitishning texnologiyasi 3

Жумаева Гулноза Тулкин кизи

Имитационная технология облагораживания с эластичной полимер-
адгезивом лицевой поверхности вторичного кожевенного спилка..... 21

Jumaeva Gulnoza

Imitation technology of improvement with elastic polymer adhesive of the face
surface of secondary leather split-leather..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

JUMAYEVA GULNOZA TO‘LQIN QIZI

**IKKILAMCHI TERI TO‘QIMA SIRTINI ELASTIK POLIMER-
ADGEZIV BILAN IMITATSIYALI BOYITISHNING TEXNOLOGIYASI**

05.06.03 -Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi
(texnika fanlari)

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5411 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Toshev Akmal Yusupovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Baxadirov Gayrat Ataxanovich
texnika fanlari doktori, professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil "30" «mart» soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxjaxon ko'chasi 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz TTYSI ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ «282» raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxjaxon ko'chasi 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08. e-mail: titlp_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" «mart» kuni tarqatildi.

(2026 yil "16" «mart » dagi № «282» raqamli reyestr bayonnomasi).



X.H.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor



A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

N.B.Mirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo bo'yicha so'nggi yillarda tayyor qoramol terisini ishlab chiqarish yiliga o'rtacha 1,3 % ga o'sdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning bu hajmdagi ulushi 72 % dan 75 % gacha, rivojlangan mamlakatlarniki esa 25 % gacha kamaydi. Bu davrda qoramol terisini ishlab chiqarish hajmi har yili 0,5 % ga kamaydi. Xitoy so'nggi yillarda (17 %) tayyor charmning eng yirik importchisi bo'lgan, undan keyin Gonkong, Italiya, Vyetnam va Germaniya, Italiya 25 % ulushi bilan tayyor charm eksport qilish bo'yicha yetakchilikni qo'lga olishdi¹. Shu jihatdan charm va mo'yna sanoati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash uchun texnologik jarayonlarni takomillashtirish, yuqori sifatli ikkilamchi teri to'qimasini ishlab chiqarish, jarayonga ta'sir etuvchi omillarni boshqarish muhim atga ega hisoblanadi.

ahonda ikkilamchi teri to'qimalariga ishlov berish orqali charm ishlab chiqarishda yirik shoxli mol terilarining gistologik tuzilishi, navlari, yashash sharoitining tayyor mahsulot fizik-kimyoviy xossalariga ta'siri va ikkilamchi teri to'qimasiga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishlar, jumladan, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali resurstejamkor, estetik badiiy bezalgan, raqobatbardosh hamda eksportbop charm va mo'yna mahsulotlarining yangi assortimentlarini yaratish borasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, alternativ elastik polimer-adgezivlardan foydalanish hamda mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan texnologiyalarni yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ikkilamchi teri to'qimasiga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish, tayyor mahsulotning fizik- kimyoviy, mexanik va gigiyenik xossalarini tadqiq qilish dolzarb vazifalar jumlasidandir.

Respublikamizda yetishtirilayotgan charm va mo'yna xomashyolarini qayta ishlash asosida, charm mahsulotlarini tayyorlash, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, jumladan, qoramol teri xomashyolarini chuqur qayta ishlash natijasida raqobatbardosh va qimmatbaho charm assortimentlarini kengaytirish orqali eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning strategiyasida "2026 yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bunda, tayyor charm mahsulotlarini 2,3 barobarga, poyabzal mahsulotlarini 2,8 barobarga, charm-attorlik mahsulotlarini 2,6 barobarga, charmdan kiyim-kechaklarni 2 barobarga, import o'rnini bosuvchi butlovchi va boshqa turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni 1,3 barobarga oshirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan, mahalliy xomashyolardan samarali foydalanish, import o'rnini bosuvchi, eksportbop va raqobatbardosh hamda xossalari yaxshilangan charm ishlab chiqarish muhim hisoblanadi.

¹Внешнеторговый оборот республики узбекистан. Предварительные данные за январь-февраль 2024 г. Агентство статистики при президенте республики узбекистан. 2025. –С.12

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-oktabrdagi PQ-331-son “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohasida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 8-fevraldagi PQ-4982-son «Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi va 2024-yil 20-maydagi PQ-181-son “Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining IV «Nanotexnologiyalar va kimyoviy texnologiyalar» istiqbolli yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda O.Niculescu, D.C.Deselnicu, Zh.Lin, Zh.Sun, M.Leca, Z.Moldovan, J.Hoefler, B.Hageman, A.Bacardit, L.Olle, J.M.Morera, I.P.Fernandes, V.Pinto, H.T.Zhang, R.Guan, B.Basaran, A.Yorgancioglu, M.I.Kuns, G.G.Shlik, M.3.Dubinovskiy, A.M.Sungatullin, L.F.Siraziyeva, O.Makrousova G.F.Yesina, A.G.Danilkovich va V.I.Chursin kabilarning ishlari ikkilamchi teri to‘qimalariga ishlov berish, charmni qoplamali bo‘yash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga bag‘ishlangan.

Respublikamiz olimlaridan T.J.Qodirov, A.Y.Toshev, M.I.Temirova, F.F.Kazakov va boshqalarining ilmiy-tadqiqot ishlari polifunksional kompozitsiyalarini yaratish va ular asosida charm, mo‘ynaga ishlov berishga bag‘ishlangan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Yuqorida bayon qilinganlar bilan bir qatorda elastik polimer-adgeziv kompozitsiyalarini yaratish, ularning fizik-mexanik va kimyoviy xossalarini tadqiq qilish hamda elastik polimer-adgeziv kompozitsiyalar asosida ikkilamchi teri to‘qimalarni imitatsiyali boyitish texnologiyasini yaratishga tegishli ilmiy-tadqiqotlar yetarli darajada bajarilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 47/2024 “Ikkilamchi teri to‘qima sirtini elastik polimer-adgeziv bilan imitatsiyali boyitishning texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi xo‘jalik shartnoma doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangi texnologik va iste‘mol xususiyatlariga ega bo‘lgan elastik polimer-adgezivlar asosidagi imitatsiyali boyituvchilarni ishlab chiqish, asosiy fizik – mexanik va kimyoviy hamda gigiyenik xossalarini saqlab qolgan holda ikkilamchi teri to‘qimalarini pardozlashning samarali texnologiyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ikkilamchi xom rezina asosida elastik polimer-adgeziv kompozitsiyalarni ishlab chiqish va ularning fizik-mexanik va kimyoviy xossalarini tahlil qilish;
xom kauchukning fizikaviy holatini o‘zgarishlariga olib keluvchi choklash

jarayoni tadqiqoti;

ikkilamchi teri to'qimasi rezina qoplamasining makromolekulalarini choklash darajasiga lazer nurlantirishining ta'siri va teri to'qimasini ablyatsion usulda silliqlash;

elastik polimer adgeziv bilan pardozlangan ikkilamchi teri to'qima namunalarning termik deformatsion o'zgarishlari tadqiqoti va xom rezina asosida olingan elastik polimer adgezivlar strukturasi identifikatsiyalash;

xom rezina asosida olingan elastik polimer adgezivlar bilan imitatsiyali boyitilgan ikkilamchi teri to'qimasining sorbsion xossalari aniqlash;

ikkilamchi teri to'qimasini imitatsiyali boyitish uchun xom rezinani qo'shimcha vulkanizatsiyalash bilan elastik rezina kompozitsiyasi tayyorlashning texnologik jarayonini yaratish;

elastik polimer-adgeziv bilan ikkilamchi teri to'qimasini imitatsiyali boyitishdagi iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida mahalliy ikkilamchi teri xomashyolari, elastik polimer-adgeziv, xom rezina (to'liq vulkanlanmagan kauchuk), Vulkanlovchi - Kaptaks MBT, Tezlashtiruvchi Altaks DTDM, stabilizator -stearin, plastifikator-DOF, to'ldiruvchi (saja, aerosil, pigment), erituvchi- "Galosha" benzin va shuningdek, qayta ishlangan ikkilamchi teri to'qima namunalari iborat.

Tadqiqotning predmeti sifatida elastik polimer-adgezivlarni olish, ikkilamchi teri to'qimasi yuzasini pardozlash uchun imitatsiyali boyituvchini qo'llash texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ikkilamchi teri to'qimalari va elastik polimer-adgezivning sifat ko'rsatkichlarini fizik-mexanik va kimyoviy tahlil qilish va shunga o'xshash boshqa standart usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikkilamchi xom rezina asosida elastik polimer adgezivlarning dastlabki tarkiblari aniqlanib, kompozitsiya ishlab chiqilib, ularning tarkibi va strukturasi infra-qizil spektroskopiya, differensial-termik, termogravimetriya, skanerlovchi kalorimetriya va adsorbsion usullar bilan identifikatsiyalangan;

elastik polimer adgeziv tarkibini shakllantirishda xom rezinaning optimal miqdori uning qattiqligini kamaytirib, cho'zilishdagi mustahkamlik chegarasi va shuningdek, nisbiy va qoldiq uzayishini sezilarli darajada ortishiga olib kelishi aniqlangan;

ikkilamchi teri to'qimasini imitatsiyali boyitish uchun xom rezinani qo'shimcha vulkanizatsiyalash orqali termo-elastik rezina kompozitsiyasini tayyorlashning texnologik jarayoni takomillashtirilgan;

dastlabki lazer impulsida teri sirt qatlamida harorat ta'sirida namlik sublimatsiyalanib ichki fazada havo zichligi kamayganligi, bosim pasayib, ikkinchi impuls energiyasi ikkilamchi tolalarni uzib tolalar aro bo'shliqni kengaytirib ablyatsiya sodir etilgan;

ikkilamchi teri to'qimasida ko'p qatlamli qoplama parda hosil qiluvchi adgeziv elastomer kompozitsiyaning kimyoviy tabiatini agressiv uglevododlarga nisbatan yuqori darajadagi olefobliligi va parchalanmasligi substratda sirt yuzasining tashqi faktorlar va fizik—kimyoviy kuchlanishlarga laminarligi aniqlangan;

elastik polimer adgeziv bilan ikkilamchi teri to'qimasini imitatsiyali boyitish natijasida yuqori haroratga chidamliligini oshirish orqali elastik polimer adgeziv bilan ishlov berilgan ikkilamchi teri to'qima mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikkilamchi teri to'qimasida hosil bo'lgan xom rezina asosidagi elastik polimer-adgeziv uglevodorod ta'siriga chidamli va yuqori adgeziyali imitatsiyali boyituvchi tarkibli kompozitsiya tayyorlangan;

elastik polimer adgeziv tarkibini shakllantirishda xom rezinaning optimal miqdori uning qattiqligini kamaytirib, cho'zilishdagi mustahkamlik chegarasi va shuningdek, nisbiy va qoldiq uzayishini muayyan darajada ortishiga olib kelgan;

lazer radiatsiyasining sarflangan energiya va ta'sir qilish vaqti oshishi bilan ikkilamchi teri to'qimasining sirt relyefi silliqqlanib, teri to'qimasi strukturasi mayin yoyilib, kollagen tolalari diametri 30-50 mkm bo'lgan tolalar to'plamini hosil qiladi hamda turli yo'nalishlarda o'zaro bog'lanib, dermisning murakkab to'qimasini hosil qilishi isbotlangan;

ishlab chiqarish faoliyatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash, elastik polimer-adgezivlarning termomexanik barqarorligini ta'minlash hamda kompleks talablar majmuasiga muvofiq qayta ishlashni nazarda tutuvchi texnologik sxema ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy tahlil uslublaridan foydalanilganligi, nazariy va laboratoriya tadqiqotlarining o'zaro mos kelishi, sinovlarning tavsiya qilingan natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ikkilamchi xom rezina ishtirokida qoplama parda hosil qiluvchi komponentlarinig elastik polimer-adgeziv kompozitsiyalarining dastlabki nisbatlari ishlab chiqilganligi, strukturasing infra-qizil spektroskopiya, differensial-termik, termogravimetriya, skanerlovchi kalorimetriya, adsorbsion usullar bilan identifikatsiyasi; xom rezina fizikaviy holatini o'zgarishlarga olib keluvchi makromolekulalarni choklash jarayoni, sorbsion xossalari, lazer radiatsiyasining generatsiyalovchi impulsning vaqti, davomiyligi va to'lqin uzunligi, pardozlangan ikkilamchi teri to'qimasining termodeformatsion o'zgarishlari bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati elastik polimer-adgeziv kompozitsiyalari tarkibi, strukturasi aniqlanganligi, fizik-mexanik va kimyoviy xossalari, teri to'qimasini ablyatsion usulda silliqqlash, imitatsiyali boyitilgan ikkilamchi teri to'qimasining umumiy massa yo'qotilishi 12,3 % ga kamayishi, xom rezinani qo'shimcha vulkanizatsiyalash bilan elastik rezina kompozitsiyasi tayyorlashning texnologik sxemasi, qo'shimcha vulkanizatsiyalash bilan elastik rezina kompozitsiyasi tayyorlashning texnologik jarayoni va qo'llanilishi, teri to'qimasini ablyatsion usulda silliqqlash, yuqori haroratga barqaror elastik polimer adgeziv bilan ishlov berilgan ikkilamchi teri to'qima mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi, tayyor mahsulotning ekspluatatsion ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi texnologik va iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan elastik polimer-adgezivlar asosidagi imitatsiyali boyituvchilarni ishlab chiqish, asosiy fizik – mexanik va kimyoviy hamda gigiyenik xossali ikkilamchi teri to'qimalarini pardoqlashning samarali texnologiyasini yaratish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

poyabzal astarlik qismi uchun tayyorlangan ikkilamchi teri to'qima sirtini elastik polimer-adgeziv bilan imitatsiyali boyitish texnologiyalari «Shaxaydarov Xasan Sharahimovich» xususiy korxonasi, kauchuk asosli ikkilamchi xom rezina ishtirokida qoplama parda hosil qiluvchi komponentlarnig elastik polimer-adgeziv kompozitsiyalari ishtirokida imitatsiyali boyitish texnologiyasi «O'zcharsanoat» uyushmasi tarkibidagi “Global Avangard Technology” MCHJ korxonasi sharoitida ishlab chiqarishga joriy qilingan. «O'zcharsanoat» uyushmasining 11-dekabr 2025-yil №01-17/3346 son ma'lumotnomasi). Natijada, elastik polimer adgeziv tarkibini shakllantirishda xom rezinaning optimal miqdori uning adgeziyasi 1,14 N yoki 32 % oshib, suv o'tkazuvchanligini 7,7 % kamayib, bug' o'tkazuvchanligi 7,2 % ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 23 ta ilmiy ish nashr qilingan, shu jumladan, dissertatsiya asosiy natijalarini nashr qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya qilgan Respublika jurnallarida 2 ta, xalqaro jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, uning obyekt hamda predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida teri to'qimalarining texnologik jarayonlari uchun elastik polimer-adgeziv bilan imitatsiyali boyitishning zamonaviy tendensiyalari va muammolari, teri to'qimalarini pardoqlash jarayonida imitatsiyali boyitish uchun elastik polimer-adgeziv materiallarni yaratish usullari, ikkilamchi teri to'qimalarini pardoqlash jarayonida imitatsiyali boyitish texnologiyasi muammolari va prinsipial imkoniyatlari, muqobil usullarining zamonaviy yechimlariga oid tegishli ilmiy adabiyotlar, ixtirolar va dissertatsiyalar tahlili keltirilgan.

Qoplamali bo'yoqlar ikkilamchi teri to'qimasi gigiyenik xususiyatlarini yaxshilashi, yuqori darajadagi destruksiyaga, nam va turli xil organik erituvchilar

ta'siriga, ko'p marotaba egilib-bukilishga hamda quruq va nam ishqalanishga barqarorligi, qoplamaning quruq va nam teri to'qimasi adgeziyasi, yuqori darajadagi elastiklikka, termomexanik qarshilikka hamda fizik-mexanik, texnologik, estetik va ekologik xususiyatlarni ta'minlashiga oid ma'lumotlarga asoslangan holda strukturasida funksional-faol guruhlarga ega bo'lgan yuqori molekulyar polimer birikmalar ikkilamchi teri to'qima sirt yuzasini imitatsiyali boyitish uchun yangi polimer-adgeziv materiallarni qo'llash texnologiyasining maqsad va vazifalari belgilab olindi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyektlari, uslublarini tanlash va ularni asoslash**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari sifatida ikkilamchi teri to'qimasiga, imitatsiyali boyituvchi rezina qoplamasi kompozitsiyasining komponentlariga tavsif, eksperimentlar metodikasi qismida elastik polimer adgezivlarning pH, qovushqoqlik, quruq qoldiq miqdorini aniqlash, lazerli nurlantirish, STM, elementlar tahlili, shuningdek, elastik polimer-adgeziv materiallarni kimyoviy va fizik-mexanik tahlil uslublari qismida charm teri to'qima qoplamasining quruq va ho'l ishqalanishga barqarorligi, qoplamaning qalinligi, zichlik va g'ovaklik, adgeziya, charm teri to'qimasi cho'ziluvchanligining nisbiy, qoldiq, qayishqoq uzayish uslublari bayon etilgan.

Dissertatsiya ishining **Elastik polimer-adgezivlarni olinishi, xossalari va teri to'qimalari texnologiyalari va texnik ko'rsatgichlari** deb nomlangan uchinchi bobining **Elastik polimer-adgezivlarni olish va ularning fizik-mexanik va kimyoviy xossalari tadqiqoti** qismida elastik polimer-adgezivlarni olish va xossalari tadqiq qilishda, buyumlardan uzoq muddat foydalanishda, adgezion xossalari yaxshilash vazifasini hal etishda elastik polimer - adgezivlar xom rezina (*to'liq vulkanlanmagan kauchuk*), vulkanlovchi - Kaptaks MBT, tezlashtiruvchi - Altaks DTDM, stabilizator - Stearin, plastifikator- DOF, to'ldiruvchi (*saja, aerosil, pigment*) hamda erituvchi uglevododrod - "*Galosha*" benzin kabi tadqiqot obyektlari ishtirokida komponentlar kompozitsiyalarining dastlabki tarkibi ishlab chiqilgan.

To'liq vulkanlanmagan kauchuk asosidagi elastik polimer adgezivlar laklar, adgeziv moddalar va plyonka materiallari shaklida keng qo'llaniladi.

Ikkilamchi teri to'qima sirtini qoplama bo'yash uchun ikkilamchi xom rezina elastik polimer adgezivlarni olishning turli kompozitsion tarkiblari keltirilgan.

Elastik polimer adgezivlari ikkilamchi teri to'qimasini qoplamai bo'yash uchun eng muhim materiallar hisoblanadi. Ular ishtirokida yuqori parda hosil qilish xususiyati hamda quruq va nam holatdagi namunalarning ishqalanishga va issiq dazmollashga, qo'llaniladigan organik oson bug'lanuvchi erituvchilar ta'siriga mustahkamligi bilan ajralib turadigan muhim xususiyatlarga ega elastik polimer adgezivlar olingan.

Dissertatsiyaning **xom kauchukning fizikaviy holatini o'zgarishlarga olib keluvchi choklash jarayoni tadqiqoti** qismida molekulyar og'irlikni o'zgartirmasdan sodir bo'ladigan reaksiyalar bilan bir qatorda polimerizatsiya darajasi o'zgarishiga olib keladigan polimerlarning molekulyar og'irlikini ortib boradigan jarayonlar bilan tavsiflangan. Buni odatda, o'zaro choklanish reaksiyalari - makromolekulalarning o'zaro ko'ndalang bog'lar orqali birikishi bilan bog'lash mumkin, bu elastomerning vulkanizatsiya reaksiyasi natijasida hosil bo'ladi.

Kauchuk tarkibli xom rezinani qo‘shimcha vulkanizatsiyalash uning chiziqli makromolekulalarni o‘zaro choklab ko‘ndalang bog‘lar, ya’ni fazoviy to‘r panjara hosil qilish natijasidagi texnologik jarayondir.

Vulkanizator kaptaks choklovchi agentining elastomer kompozitsiya tarkibidagi bog‘langan oltingugurt miqdorining rezina qoplama pardaning uzilish kuchi va cho‘zilishiiga bog‘liqligi tadqiq etildi.

Ikkilamchi xom rezina bilan bog‘langan kaptaks tarkibidagi oltingugurt miqdori 2,0-4,0 mass. qism miqdorida yumshoq, mustahkam va 4,0-6,0 mass. qism undan yuqori sarflanganda pardalar qattiqlashib, mo‘rt va sinuvchan holat sodir bo‘ldi. Ayni rezina elastomer kompozitsiyani yetarli darajada vulkanizatsiyalash uchun kaptaksdagi oltingugurtning optimal miqdori 3,0 mass. qism tashkil qilish aniqlangan.

Dissertatsiya ishining **ikkilamchi teri to‘qimasi rezina qoplamasining makromolekulalari choklash darajasiga lazer nurlantirishning ta’siri** bo‘limida vulkanizatsiya natijasida kauchuk eruvchanligi va termoplastikligini yo‘qotib, qovushqoqligi ortib, yuqori elastiklikka ega bo‘lib, mustahkamlik va bir qator yangi qimmatli xususiyatlarga ega bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotlarda xom rezina asosidagi qoplama parda hosil bo‘lishida xom rezina tarkibidagi kauchukni vulkanizatsiyalashda uning chiziqli makromolekulalarni o‘zaro choklab, fazoviy ko‘ndalang bog‘lar vujudga kelib to‘r panjara hosil qilish reaktsiya mexanizmi ishlab chiqilgan.

Bunda ularning fizik-mexanik xususiyatlari ma’lum darajada ortadi. Xususan, to‘rning fazoviy zichligi oshgani sayin, tugunlar orasidagi to‘r segmentlarining kinetik harakatchanligi pasayganida, qattiqlik, yumshatuvchi harorat va issiqlikka bardoshlilik oshadi.

Qoplama uchun eng muhim bo‘lgan ikkilamchi teri to‘qimasini mujassam qiymatlariga erishish uchun zarur bo‘lgan vulkanizatsiya jarayonining davomiyligi optimal vulkanizatsiyalanishga olib keladi.


Aynan ikkilamchi xom rezinani teri to‘qimasi sirtiga vulkanizatsiyalash zarur ingrediyentlar va kaptaks bilan xom kauchuk aralashmalarini gidromereyali pressni 70 °C haroratga qadar isitish orqali amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **lazer nurlanishi ta’sirida ikkilamchi teri to‘qimasini ablyatsion usulda silliqlash** qismi: Tadqiqotlarda silliqlangan tabiiy yuzali charm va ikkilamchi teri to‘qimasi namunalari qo‘sh impuls rejimida lazerli ishlov berildi. Qo‘sh impulsli rejimda generatsiyalovchi (impuls 3 mks vaqt intervali bilan ajratilgan, impulsning davomiyligi 10 ns), to‘lqin uzunligi 1064 nm bo‘lgan, alyumoitriy granatli LS-2134D (LOTIS, Belarus) lazer uskunasi foydalanildi. Namunaga ekspozitsiya vaqti 5-40 soniya bo‘lganda 5 –40 J energiya intervalida lazer nuri bilan ishlov berildi.

Ikkilamchi teri to‘qimasi sirtining morfologiyasi Oxford Instruments (Buyuk Britaniya) mikroanalizator tizimi bilan MIRA-3 (Chexiya) skanerlash elektron mikroskopi yordamida o‘rganildi. Qurilma bir vaqtning o‘zida ikkilamchi teri to‘qimasi sirtining morfologiyasini o‘rganish, o‘rganilayotgan namunaning kimyoviy elementlari tarqalishini aniqlash, shuningdek, obyektning tasvirini keng ko‘lamli kattalashtirishda olish imkonini beradi.

Birinchi lazer impulsining ta'siri ostida modda bug'lanadi va yaqin sirt qatlamida harorat ko'tarilgan va havo zarralari zichligi pasaygan maydon hosil bo'ladi, bu esa lazerli ablyatsiyasi uchun ikkinchi impuls energiyasidan to'liqroq foydalanishga olib keladi. Nanosoniyali impulslar ta'sirida moddaning turli xil qizishi, erishi va ablatsiyasi jarayonlarida o'rganilgan, ammo qoplamali polimerning sirt morfologiyasini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan ablatsion jarayonining yakuniy bosqichi yetarli darajada sodir bo'lganligi kuzatildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, old tomondan farqli o'laroq, ikkilamchi teri to'qima namunasida silliqlash jarayonini boshlash uchun zarur bo'lgan lazer ta'sir qilish energiyasi ortadi. 1-rasmni a), b), v), g) namunalarini taqqoslashdan ma'lum bo'lishicha, sarflangan energiya va ta'sir qilish vaqtining oshishi bilan ikkilamchi teri to'qimasining sirt relyefi tekislanadi, teri to'qimasining tuzilishi yaxshiroq ko'rinadi, kollagen tolalari qalinligi 30-50 mkm bo'lgan tolalar to'plamini hosil qiladi hamda turli yo'nalishlarda o'zaro bog'lanib, dermisning murakkab to'qimasini hosil qiladi. a-rasmda alohida fibrillalar ham aniq ko'rsatilgan (qalinligi ~ 0,5 mkm). Shuni ta'kidlash kerakki, namunaning teskari tomonidagi teri to'qimasi yetarlicha rivojlangan ichki yuzaga ega va o'lchamlari 7 dan 40 mkm gacha bo'lgan turli xil shakldagi ko'plab bo'sh joylarga ega.



a) b) v) g)
1-rasm. Turli xil ishlov berish rejimlarida ikkilamchi teri to'qimasi sirt yuzasining morfologiyasi:

- a) kirish energiyasi 25 J, ta'sir qilish vaqti 40 sek; b) kirish energiyasi 30 J, ta'sir qilish vaqti 40 sek; v) kirish energiyasi 35 J, ta'sir qilish vaqti 40 sek; g) kirish energiyasi 40 J, ta'sir qilish vaqti 40 sek.

Ikkilamchi teri to'qimasini old tomondan ikki impulsli rejimda generatsiyalab (impulslar 3 mks vaqt oralig'i bilan ajratilgan, zarba davomiyligi 10 ns) lazerli silliqlash 1064 nm to'lqin uzunligi, 40 J o'rnatilgan energiyasida va 40 sek ta'sir qilish vaqti oralig'ida amalga oshirildi.

Mazkur tadqiqotda lazer impulsining ta'siri ikkilamchi teri to'qimasini silliqlanishiga olib kelishi aniqlandi. Nazorat charm va tajriba ikkilamchi teri to'qimasining yuza sirt qismlarini turli xil intensiv energiyali lazer nurlari bilan ishlov berilganda teri to'qimasining bo'sh strukturasi past nurlanish ta'siri etganligini ko'rsatdi.

Ikkilamchi teri to'qimasini pardoqlash uchun ushbu texnologiyadan foydalanish yuqori sifatli tayyor mahsulot olish imkonini beradi, ya'ni agar

qoplamani ikkilamchi teri to'qimasi yuza sirtiga qalin qilib yotqazilsa hamda yakuniy pardoqlashdan so'ng lazer nulari bilan ishlov berilsa, qoplama nuqsonlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Dissertatsiyaning **elastik polimer adgezivlar bilan pardoqlangan ikkilamchi teri to'qimasining uglevodorodlar ta'siriga barqarorlik xususiyati tadqiqoti** qismida asosiy talablardan biri elastik polimer adgezivlarini charm va mo'yna buyumlarini agressiv vositalar, neft mahsulotlari, xususan, uglevodorodlar ta'siridan himoya qilish va barqarorligini aniqlashga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi qoplama parda hosil qiluvchi moddalarning kimyoviy tabiatining ikkilamchi teri to'qimasining ko'p qatlamli elastik polimer adgezivining uglevodorod ta'siriga va ikkilamchi teri to'qima sirt yuzasining fizik-kimyoviy xususiyatlarining substrat sifatida rolini aniqlashda uglevodorodga barqaror-chidamli elastik polimer adgezivni shakllantirishdan iboratdir.

Eksperimental elastik polimer adgezivlari asosida mavjud texnologiya bo'yicha qoplama namunalari bilan taqqoslandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, benzin elastik polimer adgeziv xususiyatlarining tubdan o'zgarishiga olib keladi. Tajriba variantlarida elastik polimerning adgeziv nazorat namunalari qaraganda benzin ta'siriga yuqori barqarorlikka egaligi tasdiqlandi.

Tajriba elastik polimer adgezivning benzin ta'siriga yuqori barqarorligini agressiv muhitning elastik polimer adgezivga diffuziyasining kamligi hamda uning qutbsizligi, shuningdek, to'liq vulkanlanmagan rezinaning mustahkam fazoviy to'r hosil qilganligi bilan izohlash mumkin. Xom rezina (to'liq vulkanlanmagan kauchuk) asosidagi elastik polimer adgezivdan tayyorlangan tajriba variantlari, nazorat variantlariga qaraganda ancha kam bo'kishiga erishilgan. Elastik polimer adgeziv benzinning singishini sekinlashtirib, ikkilamchi teri to'qima interfeys fazalar chegarasida to'planishini va adgezion effektga agressiv muhit ta'sirini kamaytiradi.

Ikkilamchi teri to'qimasini obdon yog'sizlantirish, shuningdek, bog'lanmagan yog'ni chiqarib tashlash o'zaro ta'sirlashuvchi qattiq faza sirtlarini (elastik polimer adgeziv va ikkilamchi teri to'qima) yaqinlashtiradi va ular orasidagi o'zaro ta'sir masofasini kamaytiradi va shu orqali elastik polimer adgeziv bilan ikkilamchi teri to'qima adgeziyasini oshiradi. Yog'sizlantirishdan oldin va keyin ikkilamchi teri to'qimasining (tabiiy yarim tayyor mahsulot) ichki sirt yuzasi aniqlandi va u mos ravishda 1,75 va 2,89 m²/g ni tashkil etdi.

Ushbu omillarning ahamiyatini adgeziya nazariyasining qoidalaridan biri bilan tasdiqlash mumkin, ya'ni elastik polimerning adgeziv — ikkilamchi teri to'qimalari chegarasida molekulararo o'zaro ta'sirning paydo bo'lishini ta'minlaydigan omili elastik polimer adgeziv adgeziyasining adsorbsiyasi (molekulyar) tabiati bilan bog'liqdir.

Dissertatsiyaning **elastik polimer adgeziv bilan pardoqlangan ikkilamchi teri to'qima namunalari termik deformatsion o'zgarishlari tadqiqoti** doirasida Differensial-termik tahlil DTA va termogravimetriya (TG) yordamida elastik polimer adgeziv bilan pardoqlangan ikkilamchi teri to'qimasining haddan tashqari qisqarishi hodisasi, quruq qizdirish ostida, shishasimon holatdan yuqori elastik holatga o'tish jarayonining belgilari, shuningdek, erish jarayoni borligi tasdiqlandi.

Barcha namunalarda DSC ekzo - va endotermik cho'qqilar kuzatilgan. Biroq, sof kollagenga nisbatan va uning polimer-adgeziv bilan modifikatsiyalangan mahsulotlarining o'rganilgan namunalarda endotermik effektlarning konfiguratsiyasi boshqacha.

Elastik polimer adgeziv bilan ishlov berilgan ikkilamchi teri to'qima namunasi natijalarda 1-parchalanish vaqtida asosiy massa yo'qotilishi 0,00-21,63 daqiqada 0,354 mg ni tashkil qiladi, harorat 35,50-241,05 °C oralig'ida bo'ladi, bunda asosiy massaning 13,915 % yo'qoladi. Ikkinchi parchalanish 21,63 dan 46,73 daqiqagacha sodir bo'lib, shu davr davomida 1,351 mg asosiy massa yo'qoladi, bu jarayon 241,05-488,61 °C da sodir bo'ladi va ikkilamchi teri to'qima namuna massasining 53,105 % yo'qoladi. 3-parchalanish 46,73 dan 68,63 daqiqagacha sodir bo'lib, shu davr davomida 0,460 mg asosiy massa yo'qoladi va bu jarayon 488,61-701,74 °C da sodir bo'ladi hamda bu jarayon davomida ikkilamchi teri to'qima namuna massaning 18,082 % yo'qoladi.


Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkin, massa yuqori yo'qotilishining boshlanishi 27,09 daqiqa, 295,23 °C dan boshlanib, tugashi 35,47 daqiqa, 378,45 °C da tugagan bo'lib, eng yuqori cho'qqisi 33,35 daqiqa, 357,33 °C da kuzatildi.

Aniqlangan termik tahlil natijalariga ko'ra, umumiy massa yo'qotilishining eng kam miqdori (77,1 %) elastik polimer adgezivda sodir bo'lgani kuzatiladi. Elastik polimer adgeziv bilan imitatsiyali boyitilgan ikkilamchi teri to'qimasida esa umumiy massa yo'qotilishi 85,1 % ni tashkil etdi. Ishlov berilmagan ikkilamchi teri to'qimasiga nisbatan elastik polimer adgeziv bilan imitatsiyali boyitilgan ikkilamchi teri to'qimasining umumiy massa yo'qotilishi taxminan 12,3 % ga kamaygan. Bu esa o'z navbatida elastik polimer adgeziv bilan ikkilamchi teri to'qimasi orasida nafaqat mexanik bog'lanishlar balki kimyoviy bog'lanishlar sodir bo'lganligidan dalolat beradi. Ikkilamchi teri to'qimasini elastik polimer adgeziv bilan imitatsiyali boyitish natijasida yuqori haroratga chidamliligini oshirish orqali barqaror elastik polimer adgeziv bilan ishlov berilgan ikkilamchi teri to'qima mahsulotlari tayyorlash imkoniyati aniqlandi.

Dissertatsiyaning **xom rezina asosida olingan elastik polimer adgezivlar strukturasi**ning identifikatsiyasi qismida Ikkilamchi xom rezina asosidagi elastik polimer adgeziv-qoplamalarni nechog'lik kimyoviy bog'lar hosil qilishini va elastik polimer adgezivning faol guruhlarini o'rin almashinish holatini kuzatish maqsadida tadqiqotlar obyektlarini infra-qizil spektroskopiya texnik usullari bilan taqqoslashga qaratildi.

Spektrlar gidroksil guruhining valent tebranishlari natijasida yuzaga keladigan yutilish sohalari spektrning 3200-3600 cm^{-1} diapazonida kuzatiladi. Spektrlarda 3550 cm^{-1} va 3300 cm^{-1} da yetarlicha keng va intensiv yutilish sohasi mavjud bo'lib, kollagenda turli xil kimyoviy bog'lar, jumladan, SN, SN₂ guruhlar bilan bog'langan gidroksillarning sezilarli miqdori mavjuddir.

Elastik polimer adgeziv bilan ishlov berilgan kollagenning (2-rasm) 1220-1260 cm^{-1} diapazondagi kuzatiladigan cho'qqi (amid III) CN va NH bog'larining tebranishlarga mosligini tasdiqlaydi. 1072,42 cm^{-1} da juda qisqa cho'qqisi C-O-C bog'larning tebranishlarga oiddir.



2-rasm. IV variant elastik polimer adgeziv bilan ishlov berilgan kollagenning IQ spektri

Kimyoviy bog‘lanish turlarini aniq belgilaydigan IQ spektroskopik tadqiqotlar natijalari elastik polimer adgezivlarning kollagen bilan o‘zaro ta‘siri mexanizmi muvofiq mavjudligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Shunday qilib, kollagen va karboksilikning peptid guruhlari, elastik polimer adgezivining guruhlari va boshqasi o‘rtasida asosan vodorod bog‘larining hosil bo‘lishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **Xom rezina asosida olingan elastik polimer adgezivlar bilan imitatsiyali boyitilgan ikkilamchi teri to‘qimasining sorbsion xossalari** tadqiqotida charmlardagi adsorbsiya jarayonini o‘rganish uchun Mak Ben-Bakra prujinali tarozi moslamasidan foydalanildi. Suv bug‘ining sorbsiyasi mustaqil tortish orqali nazorat qilindi, bu tajribaning aniqligini sezilarli darajada oshirishga imkon berdi.

Adsorbsiya suv bug‘larining past bosimli qiymatlarida egri chiziqchiligi bilan ajralib turadi. Brunauer tasnifiga ko‘ra barcha namunalar izotermasi 2-tipdagi izotermalarga taalluqlidir.

Sorbsiya izotermalarida uchta asosiy bosqichni kuzatishimiz mumkin, ya‘ni birinchi mono, ikkinchi polimolekulyar adsorbsiya maydonlari hamda uchunchi kapillyarli kondensatsiya maydonlaridir. Barcha izotermalarda birinchi bosqichda Lengmyur qonuniyati kuzatiladi, ya‘ni past bosimlarda intensiv sorbsiya jarayonining borishi. Bu maydon uchun egri chiziq burchak koeffitsiyenti yuqori qiymatga ega bo‘lib, polimolekulyar adsorbsiya maydonlaridagi burchak koeffitsiyenti ancha past va ko‘pchilik namunalar uchun izotermalar bosimining $R/R_s = 0,12-0,25$ qiymatlaridan boshlanadi. Ikkinchi maydonlar uchun izotermalar bosimi diapazoni $R/R_s = 0,37-0,75$ hamda uchunchi maydonlar uchun $R/R_s = 0,87-1,00$ tashkil etadi. Tahlil natijalariga asoslangan holda sorbsiya qiymatini

bunday o'zgarishlari aynan charm teri to'qimasiga elastik polimer adgezivlar orqali ishlov berish jarayonidagi derma o'zgarishlari bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari ham polimolekulyar adsorbsiya maydonining dermadagi texnologik o'zgarishlarga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Izotermaning uchinchi maydoni kapillyarli kondensatsiya bilan bog'liqdir va aynan shu maydonda sorbsiyalari kollagen protofibrillalari va fibrillalarining tuzilishini aks ettiradi va ushbu maydon sorbsiyasi bilan kapillyarlarning 50-400 nm kattalikdagi radiuslari aniqlandi.

Adsorbsiya tajriba asosida olingan ma'lumotlari va BET formulalari bo'yicha hisoblangan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Charmlar g'ovaklik strukturasi sorbsiya xarakteristikalarini

Ko'rsatkichlar	Nazorat va tajrida elastik polimer adgezivlar bilan ishlov berilgan ikkilamchi charm teri to'qimalari					
	Nazorat	Tajriba				
	1	2	3	4	5	
Monoqavat sig'imi a_m , mol/kg	1,969	1,577	2,374	2,569	2,328	
Solishtirma yuzasi S_{ud} , m ² /g	128,00	102,50	154,38	167,05	151,36	
Mikrog'ovak w_o , sm ³ /g	0,111	0,087	0,133	0,145	0,127	
To'yinish hajmi V_s , sm ³ /g	0,165	0,136	0,209	0,240	0,202	
Mezag'ovak W_{me} , sm ³ /g	0,05	0,05	0,08	0,10	0,08	
G'ovak radiusi r_k ,	Å	28,7	27,2	26,5	25,7	26,7
	nm	2,87	2,72	2,65	2,57	2,67

